

**TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARI AUDITINING  
NAZARIY ASOSLARI HAMDA YURITILISH TARTIBI**

**Ilmiy rahbar: Umarov Zafar Absamatovich**

Toshkent Moliya institute

E-mail: [umarov1@tfi.uz](mailto:umarov1@tfi.uz)

**Muminova Parvina Ilhomovna**

Toshkent Moliya instituti

E-mail: [pari2808@mail.ru](mailto:pari2808@mail.ru)

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada ilm fan va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan chora tadbirlar bo‘yicha aholining bank tizimi borasidagi bilimlarini rivojlantirish borasida tijorat banklarida deposit operatsiyalari auditining nazariy asoslari hamda deposit operatsiyalari auditini yuritilish tartibi haqida qisqacha asosiy ma’lumotlar berilgan.

**Annotation:** This article provides a brief overview of the theoretical foundations of auditing deposit operations in commercial banks and the procedure for conducting audit of deposit operations to develop the knowledge of the population about the banking system on the measures taken to develop science and the digital economy.

**Kalit so‘zlar:** bank, deposit, jamg‘arma, muddatli, talab qilib olinguncha, omonat, deposit sertifikati, passiv, depositor, omonatchi, audit, hisob siyosati, deposit siyosati, balans, hisobot, auditor, ichki audit, tashqi audit.

**Keywords:** bank, deposit, savings, term, demand, deposit, certificate of deposit, liability, depositor, deposit, audit, accounting policy, deposit policy, balance sheet, report, auditor, internal audit, external audit.

Banklarning kelib chiqish davridan hozirgi kungacha bo‘lgan davrni o‘rganib, tahlil qilib ko‘riladigan bo‘lsa, dastlabki banklarning paydo bo‘lishi bilanoq omonat va depozit tushunchalari paydo bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Chunki puldorlar va kambag‘allar doimo mavjud bo‘lgan va shakllanib kelgan. Puldorlar tomonidan ortiqcha pul mablag‘larini ishonchli joyga qo‘yish talabining vujudga kelishi depozit (omonat) tushunchasi paydo bo‘lishiga zamin yaratdi desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Depozit operatsiyalar – banklarning depozitorlar bilan tuzgan shartnomalari asosida depozit maqsadlariga ko‘ra muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operatsiyalardir. Tijorat banklari jalb qilgan mablag‘larning asosiy qismini depozitlar tashkil etadi. Depozitlar omonatchilar tomonidan qo‘ylgan yoki operatsiyalar jarayonida bank hisobvarag‘ida ma’lum vaqtgacha saqlanadigan mablag‘lar hisobidan shakllantiriladi. Bank amaliyotida qo‘llanilayotgan depozitlar va umuman, depozitlar haqida iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondashuv mavjud emas. Xalqaro bank amaliyotida depozitlar, deyilganda moliya-kredit yoki bank muassasalariga saqlash uchun berilgan qimmatli qog‘ozlar yoki pul mablag‘lari tushuniladi. Rossiyalik iqtisodchi olim **L.S.Padalkinaning** fikricha, depozit tarkibiga faqat muddatsiz depozitlar kiradi. **E.M.Rode** depozitlar o‘z ichiga jamg‘arma sertifikatlardan tashqari – barcha muddatli va muddatsiz omonatlarni oladi, deb ta’kidlaydi.

Depozit turlari:

Talab qilib olinguncha depozitlar;

Muddatli depozitlar;

Jamg‘arma depozitlar;

Boshqa depozitlar.

Banklar faoliyati mustahkamligi va barqarorligini ta’minlash uchun eng avvalo ular faoliyatini ichki va tashqi audit tekshiruvlari orqali doimiy nazorat qilib borish talab etiladi. Auditning maqsadi–taqdim etilayotgan hisobotlar to‘g‘riliqi, xo‘jalik faoliyatining haqiqiy holatini aks ettirish, uning qonuniyligi hamda moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi talablariga mos kelishini aniqlashdan iboratdir.

Audit maqsadlari:

- Bank tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarini mamlakat qonunchiligiga, normativ xujjatlariga, yo‘riqnomalar va nizomlar talablariga to‘g‘ri kelishini;
- Bank omonat (depozit) shartnomalari mavjudligini va ularni xaqiqiyligini tekshirish; Buxgalteriya xisobida depozit operatsiyalarini o‘z vaqtida va to‘liq aks ettirish;
- Bank depozit siyosatini baholash
- Depozitlar hisobini yuritishda Markaziy bank majburiy zaxira fondiga o‘tkazilayotgan mablag‘larni to‘g‘riligini baholash.

Depozit operatsiyalari ichki auditining asosiy maqsadlari quydagilardan iboratdir:

- ❖ omonatchilar manfaatlarini himoya qilish, bank o‘z faoliyati davomida erishgan va maqsad qilgan natijalarni saqlab qolish;
- ❖ taqdim etilayotgan hisobotlarni haqqoniyligi, to‘liqligi va ishonchlilagini aniqlash;
- ❖ taqdim etilgan hisobotlar amaldagi qonunchilik, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarga qo‘yilgan talablarga muvofiqligi tekshirish.

Tijorat banklarida audit xizmati tomonidan o‘tkaziladigan bank resurslarining auditidan asosiy maqsad, ichki nazorat monitoringini amalga oshirish va bank rahbariyatiga bank faoliyatining nazorati va natijalari bo‘yicha ob’ektiv tahlil, baho tavsiyalar va ma’lumotlar taqdim etish orqali bankning samarali faoliyat yuritishini ta’minlashda bank Boshqaruvi organlariga ko‘maklashishdan hamda bankning viloyat va tuman (shahar) filiallarida bank tizimi, bankning kreditorlari va omonatchilari uchun bank muassasasining moliyaviy ishonchliligi darajasini hamda xavfsizligini ta’minlashdan, shuningdek, uning umumiyligi moliyaviy faoliyatini tahlil qilishdan iboratdir.

Bank depozit operatsiyalarini audit tekshiruvidan o‘tkazilganda, quyidagi masalalar tekshirilishi lozim:

- bank faoliyati oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishda ma’muriy va operatsion jarayonlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga va Markaziy bankning me’yoriy-huquqiy hujjatlariga hamda Bank Boshqaruvi ichki siyosati va nizomlariga rioya qilinishi
  
- bankning depozitlar va boshqa operatsiyalari bo‘yicha o‘tkazilgan muomalalarining to‘g‘riliqi va asosliligi;
- buxgalteriya hisobvaraqlari va moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riliqi, tartibliligi, aniqligi va ishonchligini;
- ichki nazoratning ahvoli, tuzilayotgan hisobotlarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri tuzilib tegishli joylarga taqdim etayotganligi;
- ichki nazorat tizimining monandligi va samaradorligini tekshirish va baholash;
- tavakkalchiliklarni boshqarish jarayonlari va tavakkalchiliklarni baholash uslubiyotining qo‘llanilishi va samaradorligi tahlili
- hisob yozuvlari va moliyaviy hisobotning (shuningdek nashr etilgan) aniqligi va ishonchliligi tahlili;
- Respublika qonun hujjatlariga muvofiq hisobotlarning butunligi, ishonchliligi va o‘z vaqtida tuzilishini tekshirish;
- -xodimlarning kasb mahorati va ijro intizomi;
- -arxiv ishlarining yuritilishi.

Operatsiyalarni audit qilishda muddatsiz depozit hisobvaraqlari, ssuda va boshqa hisobvaraqlardan mablag‘ berish va o‘tkazishning qonuniyligi hujjatlar va shaxsiy hisobvaraqlar bo‘yicha audit rahbari belgilaydigan hajmda tekshirilishi mumkin. Bunda moddiy tovarlar olishga doir orderlar, ayniqsa shu mijozga xizmat ko‘rsatmaydigan mansabdor shaxslar imzolagan operatsiyalarga alohida e’tibor qaratish va ayni vaqtda hujjatlar to‘g‘ri rasmiylashtirilganini tekshirish kerak. Omonat operatsiyalari auditni asosan bankning ichki auditni tomonida amalga oshiriladi. Bosh bank va filiallar faoliyatini auditdan o‘tkazish Bank kengashi tomonidan tasdiqlangan

“Audit xizmatining filiallar faoliyatini auditdan o‘tkazish bo‘yicha tekshirish rejasiga”ga asosan amalga oshiriladi va ushbu hujjat maxfiy hisoblanadi. Tekshirish rejasiga Bosh bank va uning barcha filiallari kiritilgan bo‘lishi lozim. Filiallarning depozit buyicha axvoli keskin o‘zgargan holatlarda yoki auditor tomonidan omonat xafsizligiga taxdid aniqlanganda tekshirish rejasiga o‘zgartirish kiritilishi lozim.

Audit qilinadigan hujjatlar oldindan yoki navbat bilan hisoblanishi, hamda olingan natijalar balans bilan qiyoslanishi zarur. Buxgalteriya daftari tutiladigan, hujjatlar debetlangan balans hisobvaraqlari raqamlari o‘sib boruvchi tartibda tikiladigan bank muassasalarida audit qilinadigan hujjatlar va kassa hujjatlari shu daftardagi yozuvlarga qiyoslanadi. Hisob yuritishni tekshirish uchun olingan hujjatlar summasi hujjatlarning har bir bog‘lami bo‘yicha muassasa nomi, sana, ro‘yxatlarning raqami va bog‘lami, berilgan guruhdagi hujjatlarning narxi, hisoblash va qiyoslashni amalga oshirgan operatorlarning imzolari tushurilgan hisoblash tasmalaridagi summalar bilan qiyoslanadi va shu kundagi barcha tasmalarning yakunlari o‘zaro qo‘shiladi va olingan ma’lumotlar balans bilan taqqoslanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. “Tijorat banklarining ichki auditiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” № 3302 NIZOM 2021 16-aprel
2. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida (yangi tahriri) 2019,11-noyabr
3. Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida (yangi tahriri) 2019, 5-noyabr
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)- O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
5. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.
6. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy sayti ma’lumoti.
8. [www.cer.uz](http://www.cer.uz) - Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.